

QISHKI ILDIZMEVALI O'SIMLIKLAR AGROTSENOZINING DALASIDA ZARARKUNANDA VA BEGONA O'TLARI

Fayzullayev Farrux¹, Botirov Xidirali X.F²

1 Sh.Rashidov nomidagi SamDU ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası magistri; Samarqand sh., O'zbekiston respublikasi; +998 97 223 23 70.

2 SH.Rashidov nomidagi SamDU ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası professori, q.-x. fanlari doktori; Samarqandsh., O'zbekiston respublikasi; xidir_batirov@mail.ru; +998939900277.

Annotation. The article describes the flora and fauna of weeds in the field of winter root vegetables in the gray soils of Samarkand region. In winter, when the stock of weeds is 1-3 pieces per 1m², the attack of autumn moth, cotton weevil, thrips and leaf-eating pests increases. Against them, Nabu (1.5 kg/ha), Nitran (3.3-6.0 l/ha) and Promethrin (2.0-3.0 l/ha) drugs are recommended; translator;

Ma'lumki, ildizmevali o'simliklar vegetatsiya davrida zararkunanda hasharotlar jiddiy zarar ko'rsatadi va bunday hol ma'lumotlarga ko'ra hosilning 20-30 %, ba'zan esa undan ham ko'prog'ini nobud qiladi [3]. Ayniqsa, lavlagi uzun buruni, kuzgi tunlam, trips, bit va boshqa vakillari jiddiy zarar yetkazadi. Shu bois zararkunandalarga qarshi kurashda ularning oldini olish, ogohlantirish uchun qulay sharoit yaratish va yo'qotish choralari ko'rish, shuningdek, dala ekinlarini sog'lom himoya qilish choralari belgilash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, madaniy ekinlarga begona o'tlar ham o'ta kuchli xavf tug'diradi va jahon bo'yicha har yili 20 mlrd dollar atrofida zarar yetkazilmoqda va birgina O'zbekistonda masalan, bir yilda 15-20% g'o'za, 20% gacha sabzavot ekinlari hosili nobud bo'lmoqda. Ular ma'danli moddalar, namlik va quyosh nurini tez o'zlashtiradi, natijada mahsulot sarf-xarajatlarning 1/3 qismi behuda ketadi [1].

Hozirda begona o'tlarning sug'oriladigan yerlarda 300 ga yaqin turlari tarqalgan bo'lib, ulardan 30 ga yaqini ashaddiy tarzda zarar keltiradi. Shu bois almashlab ekishda sideratlarni qo'llash talofatni 40-50% ga, kasalliklarni esa 1,5-2 hissa kamaytirishi isbot qilingan. Shunday bo'lsa-da, biroq ildizmevalar kuzda urug'lik uchun ekilganda hasharot va begona o'tlar zahirasi deyarli o'rganilmaganligi bois amaliyotga ilmiy tavsiyalar ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan [2].

Ayni paytda ildizmevali guruh (lavlagi, sabzi, sholg'om, turp va boshq.) ekinlari kuzda ekilib, dalada qishlaydi va ular iyul oyining boshiga qadar muayyan bir dalani band etarkan kuz, qish, erta bahor va bahor davrida begona o'tlar bilan birga, ya'ni simbioz holatda o'sib - rivojlanadi [3]. Aynan shu davrda qishki ildizmevalar hayoti davomida fitosanitar ekinlarga aylanadi va dalada nafaqat biologik-fiziologik va mikrobiologik jarayonlar, balki muayyan begona o'tlar florasini ham shakllantiradi [5].

Tadqiqotlarni olib borishda quyidagi tadqiqot uslublaridan foydalanildi:

- fenologik kuzatuvlar, begona o't va o'simlik tup sonini aniqlash va ularning qish davrida sovuqqa chalinish darajasi q.-x. ekinlari nav sinash uslubi yordamida;
- qish vegetatsiyasi ildizmevalar dalasida tarqalgan begona o'tlarni sanoq va tortish usulida;
- qishki ekinlarning kasallik va zararkunandalarga chalinish darajasi umumiy qabul qilingan usulda;
- barcha fiziologik, biologik, biometrik tadqiqot-o'lchashlar, analiz va fenologik kuzatuvlar 100 ta namuna o'simliklarda;

Tajribalar Samarqand viloyati Payariq tumaniga qarashli sobiq N.Azimov va "O'zbekiston" xo'jaliklari sharoitida olib borildi. Tadqiqotlarni o'tkazish davrida dala, dala-laboratoriya va ishlab chiqarish tajribalari dala tajribasi uslubi (B.A.Dospexov, 1985) asosida 4-takrorli, 2- pog'onali va maydonchalar ketma-ket joylashtirildi. Maydoncha sathi 50 m², ishlab chiqarish sharoitida esa 0,5 hektarni tashkil etdi.

2019-2021 yy. mobaynidagi kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, shudgor qilingan dalaga nisbatan qishki ildizmevalar dalasida begona o'tlarning o'ziga xos florasini tuproq va go'ng tarkibidagi zahira hisobiga shakllanadi.

1-jadval

Ikki yillik sabzavotlar dalasidagi begona o'tlar (Samarqand viloyati, Payariq tumani «O'zbekiston» xo'jaligi, o'rtacha 2019-2021 yy.), m²/dona

Begona o'tlar	Ekinlar		Shudgor (nazorat)	Bahorgi shudgor
	ildizmevalar	karamguldoshlar		
Kuzda :				
Jag'-jag'	2	1	1	3
Otquloq	0	1	0	1
G'umay	1	1	0	2
Qamish	2	0	1	2
Qirqbug'um	0	1	0	1
Bahorda:				
Yulduz o't	2	1	1	3
Oq sho'ra	3	2	0	4
Ituzum	1	1	0	1
Bangidevona	2	1	1	2

Semiz o't	1	2	0	3
Zarpechak	1	0	0	1
Qo'ypechak	2	2	1	3
Gultojixo'roz	2	3	1	2
Kakra	0	1	0	1
Salomalaykum	1	1	1	3

Jadval ma'lumotlaridan shu narsa ravshanki, ildizmevalarning kuzgi dalasida jag'-jag', qamish va g'umay 1 m² da 1-3 dona bo'lsa, karamguldoshlarda 1 dona, shudgor (nazorat) yoki bahorgi shudgorda esa 1-3 dona atrofida bo'lishi aniqlandi. Ayni chog'da, bahordan boshlab begona o't turlarining tarkibi va tarqalish soni ham turlicha bo'lishi kuzatildi. Shu o'rinda oq sho'ra, qo'ypechak, gultojixo'roz, bangidevona kabi vakillarning soni 1 m² da 1-3 dona bo'lgan bir paytda bu nazoratda esa qariyb 2 hissa ortiq bo'lishini ko'rsatdi.

Shu yillar mobaynida olib borilgan izlanishlarga ko'ra ildizmevalar karam ildizxo'ri, barg dog'lanishi, un shudring, urug'poyaning qurib qolishi kabi kasalliklar hamda kuzgi va karam tunlami, bitlar, o'rgimchakkana, lavlagi bargxo'ri, sabzi pashshasi va soyabon kuyasi; karamguldoshlarning barg urug'xo'ri, pashshasi, arrakashi, raps gulxo'ri va boshqa zararkunandalardan u yoki bu darajada zarar ko'radi.

2-jadval

Ikki yillik sabzavotlar dalasida qishki fauna vakillarining zichligi (Payariq tumani N.Azimov va «O'zbekiston» xo'jaliklari, o'rtacha 2019-2021yy., m²/dona)

Zararkunandalar nomi	Qishki ildizmevalar			Шудгор (назорат)
	osh lavlagi	сабзи	тифон	
Kuzgi tunlam	3	0	1	1
Qarsildoq qo'ng'iz	2	0	1	1
G'alla biti	0	0	0	1
Karam biti	0	0	3	1
Raps urug'xo'ri	0	0	4	0
Lavlagi bargxo'ri	3	0	0	1
Sabzi pashshasi	0	2	0	0

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, bargli lavlagida kuzgi tunlam kuz davrida 1 m² da 3 dona, bargli lavlagi bargxo'ri (yozda) 3 dona bo'lgani holda, sabzida sabzi pashshasi 1 m² da 2 dona, tifonda esa g'alla va karam bitlari (kaloniyasi) 3-4 donani tashkil etadi. Ayni chog'da nazorat (shudgor) da ularning soni o'simlik qoplamini bo'lgan dalaga nisbatan kam ekanligi kuzatildi.

Ildizmevalar dalasida begona o't uchun Nabu (20 %, Yaponiya) – 1,5 kg/ga (bir yillik begona o'tga), Nitran (Rossiya, 30 %) 3,3-6,0 l/ga yoki Prometrin (Rossiya, 50 %) 2,0-3,0 l/ga (1-2 chinbargda), kasalliklarga qarshi esa o'suv davrida Karate -0,1 l/ga, Sumi-alfa (5 %li) -0,3 l/ga va Fufanon -0,6-1,2 l/ga tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ботиров Х.Ф. Икки йиллик сабзавотлар уруғини қишда ўстириш // Ш.Рашидов номидаги СамДУ босмахонаси, Самарканд, 2022, 150 б.
2. Батиров Х.Ф. Корнеплоды зимней вегетации в условиях орошения // Изд-во СамГУ им. Ш.Рашидова, Самарканд, 2023, 112 с.
3. Гомолицкий П.А. Ўзбекистоннинг суғориладиган ерларида бегона ўтлар // Тошкент, «Фан», 1982, 108 б.
3. Горелов Е.П. Ботиров Х.Ф. Ўз имкониятларимиздан фойдаланайлик // “Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги” журналі, 1992, 4-5 сон, Б. 24-25.
4. Доспехов Б.А. Методика опытного дела // Москва, “Колос”, 1985, 347 с.
5. Пеньков И.А. Рекомендации по применению гербицидов в посевах рапса, лука, моркови, сахарной, столовой и кормовой свеклы, в посадках кочанной капусты и картофеля // Россия, Обнинск, 2000. - 54 с.
6. Norkobilova, Z. B., Burieva, X. P., & Arabova, N. Z. (2024). THE IMPORTANCE OF DRAGONFLIES IN ALHAGI PSEUDALHAGI (M. BIEB.) DESV. EX WANGERIN PEST ELIMINATION. *Actual problems and prospects of the study of the fauna*, 1(01).
7. Qizi, N. Z. B. (2024). PROSPECTS FOR THE FUTURE STUDY OF THE ODONATA ORDER: A REVIEW OF PUBLISHED ARTICLES FROM THE SCOPUS DATABASE 2019–2023. *European science review*, (3-4), 13-22.
8. Кучбоев, А. Э., Каримова, Р. Р., Рузиев, Б. Х., Салахутдинов, И. Б., & Эгамбердиев, Ш. Ш. (2015). Морфологическая и молекулярная характеристика некоторых видов нематод семейства Protostrongylidae Leiper, 1926. *Российский паразитологический журнал*, (3), 7-14.

9. Кучбоев, А. Э., Каримова, Р. Р., Рузиев, Б. Х., Салахутдинов, И. Б., & Эгамбердиев, Ш. Ш. (2015). Морфологическая и молекулярная характеристика некоторых видов нематод семейства Protostrongylidae Leiper, 1926. *Российский паразитологический журнал*, (3), 7-14.
10. Kuchboev, A. E., Karimova, R. R., Pazilov, A., Ruziev, B. H., & Amirov, O. O. (2017). Terrestrial mollusks of Uzbekistan-intermediate hosts of protostrongylids (Nematoda: Protostrongylidae).
11. Карабекова, Д. У., Исакова, С. А., & Остащенко, А. Н. (2019). К ЭКОЛОГО-ФАУНИСТИЧЕСКОМУ ИССЛЕДОВАНИЮ ГЕЛЬМИНТОВ ГРЫЗУНОВ (RODENTIA) ЧУЙСКОЙ ОБЛАСТИ. *Исследование живой природы Кыргызстана*, (1-2), 51-56.
12. Abdikayumovna, X. G. (2023). Mazkur maqolada Respublikamizdagi suv omborlarda uchraydigan mollyuskalarning turlari, yashash sharoitlari, tuzilishi, faunasi, ekologiyasi, tarqalishi va inson hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. *JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH*, 2(5), 78-81.
13. Бобоназаров, Г. Я., & Омонова, Н. Р. (2021). OZBEKISTONDA YIRIK SHOXLI QORAMOLLAR TERI OSTI OQRASI HYPODERMA BOVUS (DIPTERA) ORGANILISHIGA DOIR. *Журнал Биологии и Экологии*, 3(1).
14. Rahimovna, O. N. (2024). SPECIES COMPOSITION OF ECTOPARASITES OF CHICKENS IN CONDITIONS OF THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN. *European science review*, (5-6), 3-7.
15. Рахматуллаев, А. Ю., Давронов, Б. О., Норкобилова, З. Б., & Омонова, Н. Р. (2021). Фауна Дождевых Червей В Узбекистана. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 310-314.
16. Davronov, B., & Orziyeva, Y. (2024). QASHQADARYO VILOYATI HUDUDIDA UCHRAYDIGAN HYGROMIIDAE OILASI (Tryon, 1866) FAUNASINING ORGANILGANLIK HOLATI. Actual problems and prospects of the study of the fauna, 1(01).
17. Toshov, O. J. (2021). BIOTSENOTIC RELATIONS OF REPTILES ANIMALS IN THE DESERT ECOSYSTEMS OF THE SOUTHERN REGION OF UZBEKISTAN. *Экономика и социум*, (4-1 (83)), 423-425.